



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев “Хизмат” тушунчасининг иқтисодий кагегория сифатида назарий таҳлили	5
Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Рустам Алижонович Мусабоев Истеъмолчилик хулқининг трансформацион хусусиятлари	11
Аскар Хайдарович Джумаев Жаҳон хўжалигида иқтисодий тизимларнинг қиёсланишининг услубий жиҳатлари	16
Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov Amir Temur ijtimoiy faoliyatida ratsionallik yondashuvi	20
Lola Nazarovna Xalikova Ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlar	24
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Боҳодир Ибрагимович Исроилов, Бобуршоҳ Боҳодир ўғли Ибрагимов Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ ҳуқуқбузарликларини таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Қулмамат Джонузоқович Мирзаев, Гиёс Турабекович Юлдашев Республикамизда деҳқончиликни инновацион асосда ривожлантиришни асосий тараққиёт тенденциялари	32
Жунайдулло Садиевич Файзиев Умумий овқатланиш корхоналарини дастурий – аппарат комплексларидан фойдаланиб автоматлаштириш	37
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Раҳматулла Хидирович Эргашев Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини ошириш	42
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Зариф Юсупович Аминов Инсон иқтисодий хавфсизлигига ишчи кучи сифатининг таъсири	49
Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi kamchilik va muammolar	53
Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning uslubiy asoslari	57
Sadoqat Qudratovna Bultakova Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning O‘zbekistonda o‘shish dinamikasi	63
Luiza Komilovna Haydarova Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillarini tahlili	67
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	74

Lola Nazarovna Xalikova – Samarqand iqtisodiyot va servis institute professori v.b, i.f.d. (DSc)

IJTIMOY HIMOYALASHGA OID NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya: maqolada Amir Temur davlati iqtisodiy siyosatida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari muhim o‘rin egallagan. Sohibqiron davlat tuzumi tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, uning zamonida bevosita rahnamoligida ijobiy himoyalashning keng qamrovli tizimi amal qilgan. Amir Temur davlatining yuksalishi to‘g‘ri olib borilgan iqtisodiy siyosatning natijasi bo‘lib, ko‘p qirralari hozir ham dolzarbdir.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy siyosat, ijtimoiy himoya, davlat tuzumi, jamiyat, ijtimoiy ahvol, kambag‘allik, imtiyozli xizmat, mehnatga qobiliyati.

«Har qanday jamiyatning madaniyat darajasi, bag‘ri kenglik va mehribonlik xususiyatlari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan shaxslar va keksa avlod vakillariga munosabati bilan belgilanadi».

Shavkat Mirziyoyev

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiy islohotlarning o‘ziga xos yo‘li tanlandi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tizimini joriy etish tezlashmoqda. O‘tish davri jarayonlari beshta asosiy tamoyillar qatoriga kuchli ijtimoiy himoya sohasida ham uzoq muddatni o‘z ichiga olgan dastur bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilishni ifoda etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning O‘zbekiston andozasiga asoslanadigan eng muhim prinsip ham kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat bosqichma - bosqich va makroiqtisodiy boshqaruv bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy sotsial xarakteriga bog‘liq. Ijtimoiy jihatdan rivojlangan jamiyat ideal jamiyatdir, bunda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida turmush darajasida katta farq hamda antagonistik qarama-qarshiliklar bo‘lmaydi.

Ijtimoiy himoyaning sotsial-iqtisodiy munosabat sifatidagi mohiyati jamiyat va aholi o‘rtasidagi muhtojlik hollarda yordam, qariyalarga ko‘maklashish, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ahvol, hayotiy zaruriy vositalar bilan ta‘minlash kabi munosabatlardan iboratdir. Ijtimoiy himoya pensiya, nafaqa, moddiy yordam, qariyalar, bemorlar, nogironlarga imtiyozli xizmat ko‘rsatish va bolalarga ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik kabi jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatda namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonni o‘z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko‘lamli islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Shu yo‘nalishda ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholidan yordamga muhtoj qatlamlarini qo‘llab - quvvatlash kambag‘allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Avvalo ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslarni o‘z vaqtida hisobga olish mexanizmlarini samarali ishlatish, muhtojlik belgilari paydo bo‘lgan oila va fuqarolarning ijtimoiy ahvolini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda, monitoring qilish, ulardan turmush sharoitlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Yaqin 10 yilda aholi daromadlarini 2,5-3 marta ko‘paytirishga erishish, eng kam ish haqini yashash minimumi miqdori darajasiga tenglashtirish bo‘yicha davlat dasturi ishlab chiqiladi. [2]

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda 2030-yilgacha kambag‘allik darajasini ikki martaga kamaytirish choralari ko‘riladi.[2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish

hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. [1]

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlarning ustuvor yo'nalishlarini o'rganish va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning rivojlanganlik darajasini tahlil qilishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash va solishtirish hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Amir Temur mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, fuqaroning osoyishtaligi va farovonligi, davlatning buyukligi turli toifalarning va turli pog'onadagi amiru umarolarning bilimi va iqtidoriga, adolat va insof bilan ish yuritishiga bog'liqligini chuqur anglagan. Shu bois mazkur toifalardan, ularning imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalangan. Shu bilan birga ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Oliy hukmdor turli toifalar va turli pog'onadagi amiru ulamolarni ijtimoiy himoyalashda iqtisodiy rag'batlantirishning ulufa shaklidan keng foydalangan. Chunki ulufa xalqning barcha tabaqalariga, ayniqsa, amiru sipohilarga tayanib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qiziqtirib, manfaatdorlik va adlu insof bilan ish yuritishda nihoyatda qo'l kelgan. Masalan, qaysi bir sipohi xizmatda yurib qarilik yoshiga yetsa, u ulufadan mahrum etilmagan va martabasidan tushirilmagan. [3]

Amir Temur markazlashgan davlat vujudga keltirish jarayonida raiyatning mol-mulkini talon-taroj qilishdan himoya qildi, ichki va tashqi bosqinchilar, talonchi va qarochilarning yo'li to'sildi. Ta'kidlaganimizdek, markazlashgan kuchli davlat iqtisodiy siyosatida aholini ijtimoiy himoya qilish muhim o'rinni egalladi. Tariximizni bilmasligimiz tufayli yaqin-yaqingacha aholining ehtiyojmand qismini ijtimoiy himoya qilish sotsializm deb atalgan jamiyatning kashfiyoti, kapitalizm deb atalgan tuzum bu namunadan xabardor mehnatkashlar noroziligidan cho'chib ijtimoiy himoya tizimini joriy qilgan deb kelardik. «Tuzuklar»ni o'rganish jarayonida Amir Temurning bevosita rahnamoligida ijtimoiy himoyalashning keng qamrovli tizimi amal qilganligiga amin bo'ldik. Agar ilgari ijtimoiy himoyalash islom dinining axloqiy qonun-qoidalariga muvofiq ixtiyoriy xayru ehson shaklida amalga oshirilgan bo'lsa, Amir Temur davrida aholini ijtimoiy himoyalashning davlat tizimi ham vujudga kelib, u iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Hamma zamonlarda ham, shu jumladan, Amir Temur zamonida ham raiyatni adolatu insofdan chekingan, imonu insofni nafs balosiga almashtirgan alohida amaldor hokimlar, beklar, qozilar, yasovulu chopovullar, zakotchilar va shunga o'xshashlardan himoya qilish talab qilingan. Shuningdek, sipohilar tomonidan ham qonun-qoidani buzish va kezi kelganda aholi mulkini talon-taroj qilish, zo'ravonlik holatlari sodir bo'lgan. Adolatpesha bobomiz o'g'ri, qarochi, zo'ravonlarni jazolagan; fasodchi, buzuqi, nafs yomon kishilarni mamlakatdan haydab chiqargan: «Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim».[4]

Raiyatga zolimlar tomonidan yetkazilgan ash-yoviy va jismoniy zararlar, shariat qonunlariga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qilinar, isbotlangandan keyin zarar to'lanar hamda shariat qonun-qoidalariga muvofiq jazo belgilanardi. Yo'llarni qo'riqlash, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarning mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib berish uchun kuzatuvchilar, zobitlar tayinlangan edi. Agar yo'l ustida birortaning narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasiga yuklanardi.

Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash, qo'llab-quvvatlash borasida ham izchil iqtisodiy siyosat olib borilgan. Ishsizlik o'sha zamonning ham katta ijtimoiy illati hisoblangan. Natural xo'jalik hukmronlik qilgan zamonda mehnat bozori juda sust rivojlangan bo'lib, ishsizlar va gadolar sonining ko'payishiga sabab bo'lardi. Amir Temur gadolarni mamlakatni xunuk ko'rsatuvchi omil deb qaradi va bu ijtimoiy illatning iqtisodiy zaminini yo'qotmasdan, uning oldini olish mumkin emasligini aniq tahlil qilgan holda ijtimoiy himoya qilishning turli usullaridan foydalandi. Birinchi navbatda, aholining ijtimoiy jihatdan

nochor tabaqalari: nogironlar, shol, ko‘r, qarilik sababi bilan ishlay olmaydiganlar nafaqa bilan ta‘minlandi. [5]

Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda, xazinaning o‘n foizi shu maqsadga sarflangan. Ikkinchi navbatda, mehnatga qobiliyatli, bilagida kuchi bor faqiru miskinlar va gadolarni ish bilan ta‘minlash chora-tadbirlari amalga oshirildi: «Yana buyurdikki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qotilsin». Biroq, shunga qaramay, gadolikni kasb qilib olganlar, nafaqa olib ham gadolik qiluvchilar mamlakat hududidan haydab yuborilgan. Mamlakatda dangasalar va tekinxo‘rlarga nisbatan nafrat va murosasizlik kayfiyati uyg‘otilgan.[6]

Amir Temur davlati ijtimoiy himoya tizimining eng muhim xususiyati shundan iboratki, saltanatda aholining turli qatlamlariga qat‘iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashilgan, ya‘ni ijtimoiy himoya davlatning moddiy yordamiga muhtoj bo‘lgan jamiyat a‘zolarigagina yo‘naltirilgan. Ijtimoiy himoyaga tabaqalashtirilgan holda yondashilgan deganimizning ikkinchi bir isboti shuki, qaysi bir sipohi xizmatda yurib qarilik yoshiga yetsa, u ulufadan mahrum etilmagan va martabasidan tushirilmagan. Ijtimoiy himoyalash, albatta, mamlakat va elatlarning milliy an‘analari va urf-odatlariga tayanilgan holda amalga oshirilgan. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida mahalla-guzarlar muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, Amir Temur saltanati sog‘liqni saqlash, musofirlarga yordam ko‘rsatish, suv chiqarish, ko‘priklar qurish kabi ishlarda raiyatdan yordamini ayamagan. Masalan, davlat mablag‘lari hisobiga har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar (darvishlar, qalandarlar, g‘arib-miskinlar to‘xtaydigan, istiqomat qiladigan joy) qurilgan. [7]

Xulosa va takliflar. Amir Temur moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishga jamiyatni, jamoani, shaxsni harakatga keltiruvchi ulkan kuch deb qaradi va undan davlatni, iqtisodiyotni boshqarishda dasturilamal sifatida foydalandi. Xazinadan beriladigan maosh fuqaroning egallagan vazifasi, bajargan xizmatiga qarab darajama-daraja oshirib borildi. Bu tarzda maosh belgilash, ya‘ni egallagan vazifasi va bajargan xizmatiga qarab maoshini darajama-daraja oshirib borilishi hozirgi zamonda amal qilayotgan tarif setkasini eslatadi. Amir Temur bunday tizimni XIV asrning ikkinchi yarmida joriy etgan bo‘lsa, biz esa mazmun jihatidan shunga monand moddiy rag‘batlantirish tizimini respublikamizda 1992 yilda joriy qildik.

Amir Temur, ayniqsa, qo‘shinlarning jangovarlik ruhini ko‘tarish, muxolif kuchlar ustidan g‘alaba qilish va qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun moddiy manfaatdorlik tamoyilidan ustalik bilan foydalangan. Sipohlarning oylik haqlarini so‘rattirmay bergan. Rum yurishida esa sipohlarning ruhini ko‘tarish maqsadida yetti yillik ozuqalarini birdaniga bergan.

Mamlakat ichki va tashqi siyosatida barqarorlikni ta‘minlashda, raiyatning turli qatlamlari orasida birlikni vujudga keltirishda, turli elat va millatlarni markazlashgan davlat atrofida birlashtirishda

dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan moddiy rag‘batlantirish tamoyilining turli qirralarini Sohibqironning quyidagi so‘z va amaliy ishlarida ko‘rish mumkin:

- ❖ Xayru ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim.
- ❖ Amirlarim va sipohilarimni martaba va unvonlar, zaru zavarlar bilan xushnud etdim. Dirham va dinorlarni ulardan darig‘ tutmadim.
- ❖ Sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg‘ol belgilab, har birining vazifasini tayin qildim.
- ❖ Har el va har mamlakatning ulug‘larini, boshliq-oqsoqollarini qadrladim, ularga sovg‘a-salomlar berib xizmatlaridan foydalandim.
- ❖ Ahli majlis bo‘lmish sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixchilarga o‘z hollariga qarab suyurg‘ol, vazifa va maosh belgilansin deb buyurdim.
- ❖ Raiyat, har bir diyor aholisining aholidan ogoh bo‘lib turdim.

Amir Temur mamlakatning siyosiy birligini mustahkamlashda, jahongirlikda, yagona markazlashgan davlatni vujudga keltirishda, fan va madaniyatni hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda ma‘naviy rag‘batlantirishga ham buyuk harakatlantiruvchi kuch deb qaradi.

Shubhasiz, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning Amir Temur uslubi biz uchun tarixiy saboqdir. Uning eng yaxshi tomonlaridan foydalanish, mazmunan va shaklan kengaytirish, uni yanada chuqurlashtirish jamiyatimiz rivojida harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qilishini inobatga olib, tadbirkor bobomizning ma’naviy rag‘batlantirish haqidagi o‘g‘itlarini kitobxonlarga havola qilishni lozim topdik:

- lashkarni, raiyatni atrofimga birlashtirish uchun muruvvat ko‘rsatdim, ularga mehribonlik qildim;
- shirin so‘z va ochiq yuz bilan ularni o‘zimga rom etdim;
- qilgan bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud qildim;
- amirlarim va sipohlarimni martaba va unvonlar bilan xushnud etdim;
- fuqaro va qo‘l ostimdakilarga rahmdillik qildim, zolimlardan mazlumlar haqqini oldim;
- raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim;
- kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, davlatu ne‘mat martabasiga erishganimda unutmadi, haqlarini ado etdim;
- menda biron kimsaning haqqi bo‘lsa, haqqini hech vaqt unutmadi;
- biron kimsa bilan tanishgan bo‘lsam, uni hech vaqt nazarimdan chetda qoldirmadim;
- sayyidlar, oqilu donolar, xabarchilar, tarixchilarni e‘tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga ko‘ydim;
- qaysi biri ko‘zga ko‘rinarli biror xizmat ko‘rsatar ekan, in‘omlar berib, boshqalardan ayriча hurmatladim, so‘ngra ko‘rsatgan xizmatiga yarasha martabasini yanada ko‘tardim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi» nomli kitobi. T.: 2023.
3. Temur va temuriylar saltanati. Qomuslar bosh tahririyati – T.: 1994.
4. Ibrohim Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. «Fan». T.: 1968.
5. Amir Temur o‘g‘itlari. Toshkent. «Navro‘z» - 1992.
6. Temur tuzuklari. Toshkent. Nashriyot-manbaa birlashmasi. – 1991.
7. Muhammadjon Xolbekov. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. Samarqand. 1996.

<p>Л.Халикова</p> <p>Научно-теоретические взгляды на социальную защиту</p> <p>Аннотация: в этой статье рассмотрены проблемы социальной защиты населения, занимающее особое место в экономической политике государства Амира Тимура. Изучение истории государства великого правителя показывает об эффективном использовании морально-материальной системы стимулирования населения. Процветание огромного государства при Амире Тимуре, возможно было в результате продуманной экономической политики, многие положения которой актуальны и в настоящее время.</p> <p>Ключевые слова: экономическая политика, социальная защита, государственная система, общество, социальное положение, бедность, льготные услуги, способность к труду.</p>	<p>L.Khalikova</p> <p>Theoretical perspective on social protection</p> <p>Abstract: this article examines the problems of social protection of the population, which occupies a special place in the economic policy of the state of Amir Timur. Studying the history of the state of the great ruler shows the effective use of the moral and material system of stimulating the population. The prosperity of the huge state under Amir Timur was possible as a result of a well-thought-out economic policy, many of the provisions of which are still relevant today.</p> <p>Keywords: economic policy, social protection, government system, society, social status, poverty, preferential services, ability to work.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.